

IJTIMOIY FANLAR

SURXON VOHASIDA NIKOH TUZISH MUNOSABATLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

BURIYEV RAVSHAN RUSTAMOVICH

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Tarix va falsafa” kafedrası tayanch doktoranti*

E-mail: boriyevravshan43@gmail.com

UDK: 308

<https://orcid.org/0009-0009-4937-7734>

Kalit soʻzlar:

nikoh, oila,
er va xotin
munosabatlari,
farzand,
marosimlar,
ekzogamiya,
endogamiya,
monogam,
poligin, ibtidoiy
nikoh, toʻy.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxon vohasi aholisining nikoh tuzish shart-sharoitlari, nikoh tushunchasi va uning etnografik tahlili yoritilgan. Maqolaning asosiy maqsadi nikoh masalalari, unga aloqador urf-odatlar va marosimlarni oʻrganish, yoshlarni oila masalalariga jiddiyroq yondashishga undash hamda ularga toʻgʻri yoʻl koʻrsatishdan iborat. Surxon vohasi aholisi oʻrtasidagi urf-odat va anʼanalar boshqa hududlarnikidan tubdan farq qilgani bois ularni alohida yondashuv asosida tahlil qilish lozim. Nikoh faqat ikki yoshning birga yashashi emas, balki u oila deb ataluvchi masʼuliyatni ham oʻz zimmasiga olishdir. Xalqimizda turli urf-odat va marosimlar mavjud boʻlib, ularning eng muhimlaridan biri nikoh masalasidir. Ushbu jarayonni kengroq yoritish yosh tadqiqotchilarning muhim vazifalaridan biridir. Oila oʻchogʻi nikoh munosabatlari natijasida shakllanadi. Nikoh – er va xotin oʻrtasidagi muayyan ittifoq boʻlib, u jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi hamda maʼqullanadi.

БРАЧНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ОСОБЕННОСТИ В СУРХАНСКОМ ОАЗИСЕ

Ключевые слова:

брак, семья,
отношения
мужа и жены,
ребенок, обряды,
экзогамия,

Аннотация:

В данной статье освещены условия заключения брака жителями Сурханского оазиса, понятие брака и его этнографический анализ. Основная цель статьи – изучить вопросы брака, связанные с ним обычаи и обряды, побудить молодых людей более серьезно относиться к семейным вопросам и показать им

эндогамия,
моногамия,
полигиния,
первобытный
брак, свадьба.

правильный путь. Поскольку обычаи и традиции среди населения Сурханского оазиса коренным образом отличаются от обычаев и традиций других регионов, их необходимо анализировать на основе особого подхода. Брак - это не только совместное проживание двух молодых людей, но и принятие на себя ответственности, называемой семьей. В нашем народе существуют различные обычаи и обряды, одним из самых важных из которых является вопрос брака. Более широкое освещение этого процесса является одной из важных задач молодых исследователей. Семейный очаг формируется в результате брачных отношений. Брак - это определенный союз между мужем и женой, признаваемый и одобряемый обществом и государством.

MARRIAGE RELATIONS AND CHARACTERISTICS IN THE SURKHAN OASIS

Keywords:

marriage, family, husband and wife relations, child, rituals, exogamy, endogamy, monogamy, polygyny, primitive marriage, wedding.

Abstract:

This article highlights the conditions for marriage among the population of the Surkhan Oasis, the concept of marriage, and its ethnographic analysis. The main purpose of the article is to study marriage issues, related customs and rituals, to encourage young people to take family matters more seriously, and to show them the right path. Since the customs and traditions of the population of the Surkhan oasis differ significantly from those of other regions, they should be analyzed on the basis of a special approach. Marriage is not just about two young people living together, but also about taking responsibility for what is called family. Our people have various customs and rituals, one of the most important of which is the matter of marriage. A broader coverage of this process is one of the important tasks of young researchers. The family hearth is formed as a result of marital relations. Marriage is a specific union between a husband and wife, recognized and approved by society and the state.

KIRISH

“Nikoh” atamasi arab tilidan olingan bo‘lib, “uylanish”, “erga tegish”, “er-xotinlilik”, “qo‘shilish” kabi ma’nolarga ega. Aniqroq aytganda, nikoh – er-xotinlik munosabatlarini shariat tomonidan rasmiylashtiriladigan shartnoma hisoblanadi [1, 38].

Mamlakatimizda oilani mustahkamlash maqsadida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. 1998-yil 2-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “Respublika Oila ilmiy-amaliy markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorni qabul qildi. Ushbu qaror Prezidentimiz tomonidan 1998-yilning “Oila yili” deb e‘lon qilinishi munosabati bilan tasdiqlandi. Mazkur qarorda “oilaning jamiyatni o‘zgartirishdagi o‘rni va ishtirokini yanada oshirish, oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy-axloqiy manfaatlarini va farovonligini yaxshilashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish va izchil ta‘minlash” ta‘kidlanadi.

Oila manfaatlarini ta‘minlashga qaratilgan tadbirlar Davlat dasturi doirasida kompleks tarzda olib borilib, u 150 dan ortiq tadbirni o‘z ichiga oladi. 1998-yilda ushbu tadbirlarni bajarish uchun davlat byudjetidan 144,8 milliard so‘m mablag‘ ajratildi.

1999-yil “Ayollar yili” deb e‘lon qilindi va ushbu yildagi Davlat dasturida ham oilani himoya qilish, uning ustunlaridan biri bo‘lgan ayollarning manfaatlarini himoya qilishga alohida e‘tibor qaratildi.

2000-yil “Sog‘lom avlod yili”, 2001-yil esa “Ona va bola yili” sifatida tarixga kirdi. Bu yillarda oilaning asosiy tayanchi bo‘lgan onalar va bolalar haqida katta g‘amxo‘rlik qilindi. O‘nlab yangi sanatoriyalar, dam olish uylari va tibbiy muassasalar qurildi.

2002-yil esa “Qariyalarni qadrlash yili” deb nomlandi. Ushbu yilda oilaning ko‘rki, maslahatchisi va g‘amxo‘ri bo‘lgan ota-onalarga katta hurmat ko‘rsatildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalqimizning eng muhim qadriyatlaridan biri – oiladir. Oilalarning vujudga kelishi esa nikoh rishtalari orqali, ya‘ni bir erkakning bir ayol bilan ixtiyoriy ravishda birga yashashlari orqali sodir bo‘ladi. Oila o‘chog‘i nikoh munosabatlari natijasida tashkil topadi. Nikoh – er va xotin o‘rtasidagi muayyan ittifoq bo‘lib, u jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi hamda ma‘qullanadi [2, 19].

Nikohning tarixiy shakllariga “ekzogamiya”, “endogamiya”, “monogamiya” va “poliginiya” kabi turlar kiradi. 1865 yilda shotlandiyalik olim Jon Maklennan o‘zining Ibtidoiy nikoh nomli asarida ilk bor “endogamiya” va “ekzogamiya” atamalariga ta‘rif bergan. Unga ko‘ra, “endogamiya” – nikohning muayyan etnik

guruhlar, irqalar, sinflar, dinlar yoki tabaqalar doirasida tuzilishidir. “Ekzogamiya” esa qarindoshlar oʻrtasidagi nikohning taqiqlanishi va shaxs oʻz urugʻidan tashqarida boʻlgan kishilar bilan nikoh tuzishini anglatadi [3].

Oʻzbek oilasi qadim zamonlardan boshlab shakllanib kelgan. Etnografik tadqiqotlarga koʻra, eng qadimgi doston, ertak va rivoyatlarda oilaning matriarxat davriga tegishli ekanligini kuzatish mumkin. M.O.Kosvenning yozishicha, matriarxat munosabatlar davrida nikoh koʻpincha erning emas, balki ayolning tashabbusi bilan tuzilgan [4].

Bundan tashqari, Oʻzbekiston hududida yashab ijod qilgan oʻzbek adiblaridan biri Abdurauf Fitrat oʻzining Oila yoki oila boshqarish tartiblari kitobida oilaning qanday shakllarda tuzilishi va uni boshqarish tartibi haqida oʻz fikrlarini bayon etgan.

ASOSIY QISM

Qadimgi turklarda ayol muqaddas sanalgan. Islomgacha boʻlgan davrda turk ayollari urugʻning taniqli kishilari yigʻini, yaʼni qurultoy yoki toʻylarda qatnasha olganlar, hoqonlar esa oʻz qarorlarini xotinlari bilan birga qabul qilganlar [4, 153].

Qadimgi turklarda oila nikoh toʻyi natijasida shakllangan. Turklarda yaqin qarindoshlar oʻrtasidagi nikoh taqiqlangan boʻlib, nikoh yoshi uchun aniq chegara belgilanmagan. Hozirgi zamonaviy dunyoda esa nikoh shartlari biroz boshqacha boʻlib, davlat tomonidan tartibga solinadi. Masalan, Oʻzbekistonda nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun 18 yosh etib belgilangan. Hozirgi statistik maʼlumotlarga koʻra, oʻgʻil bolalar uchun oʻrtacha turmush qurish yoshi 26-27 yosh, qizlar uchun esa 23-24 yoshdir.

Ilgari ota oʻz bolalari yoki otaligʻiga olgan bolalarni erta uylantirishi yoki erga berishi mumkin edi. Biroq buning uchun bolalar voyaga yetishi va ulgʻayishi talab qilingan. Nikoh sharti sifatida ota-ona hamda bolalarning roziligi muhim sanalgan. Otalar yoki otaliqlar oʻgʻillarining istaklariga eʼtibor bergan, ularning sevikli yorlariga uylanishlariga kamdan-kam hollardagina qarshilik qilganlar.

Nikohning yana bir sharti kuyov yoki uning ota-onasi tomonidan kelinning otasiga qalin berilishi boʻlgan. Qalin kelinning narxi hisoblanmagan, aksincha, qizni bolaligidan oʻstirib, tarbiyalagan ota-onaga yetkazilgan xarajatlarni qoplash maqsadida toʻlanadigan haq sifatida tushunilgan. Qalin miqdori bir necha bosh qoʻydan yuzlab otlargacha yoki otar-otar qoʻylargacha yetgan [5, 110].

Oʻzbekiston hududlariga arablar kirib kelishi bilan nikoh va oila munosabatlari islomiy tus olgan. Islom dini hukmronligi sharoitida ota-bobolarimiz nikoh masalasiga katta eʼtibor qaratganlar. Zero, nikoh Islom dinidagi eng muqaddas tushunchalardan biridir. Nikohning shariatga muvofiq boʻlishi uchun quyidagi

shartlarga amal qilish lozim bo'lgan.

O'zbek oilasida bir necha avlod vakillarining birga yashashi va ular o'rtasidagi bog'liqlik boshqa yurtlarga nisbatan kuchliroq bo'lib, bu uning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshirgan. O'zbek oilasining o'ziga xos jihatlaridan biri sadoqat, yetti pushtini bilish, yaqin qarindosh-urug'lar, ota-ona va qariyalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, shuningdek, bolalar kelajagi uchun qayg'urish hisoblanadi. O'zbek oilasi odatda katta bo'lib, unda odamlar jamoa bo'lib yashab kelganlar.

XIX–XX asrlarda Surxon vohasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri aholining katta oila bo'lib yashashi hisoblanadi. Katta oila – bir otaning uch-to'rt avlodidan iborat bo'lib, eng yaqin qarindoshlari, ularning xotin va bolalari, ba'zan kuyovlari hamda oilaga qabul qilingan boshqa qarindoshlar hisobiga yuz va undan ortiq kishilardan tashkil topgan xo'jalik guruhi bo'lgan.

Urug'-qabilachilik an'analari ancha mustahkam saqlangan o'zbeklarda, boshqa xalqlardan farqli ravishda, ekzogam nikoh odati mavjud bo'lmagan. Aksincha, XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib, kuzen nikoh, ya'ni urug'doshlar (amakivachcha, xolavachcha, ammavachcha) o'rtasidagi endogam nikoh keng tarqalgan. Bu esa asli urug'-qabilaviy munosabatlarning yemirilganligini ko'rsatadi. Ayrim etnik guruhlarda esa urug'-qabilachilik an'analari oilaviy nikoh munosabatlariga va ijtimoiy-ma'naviy turmushga unchalik ta'sir ko'rsatmagan.

Nikoh marosimlari nafaqat O'rta Osiyo xalqlari orasida, balki o'zbeklarning ayrim etnografik guruhlari orasida ham biroz farq qilgan va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Ammo nikoh asli ibtidoiy jamiyatda paydo bo'lgan umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan ajoyib marosimlardan biri bo'lib, unda barcha jamiyat a'zolari uchun zarur bo'lgan qonun-qoidalar o'z ifodasini topgan.

Surxon vohasi aholisining nikoh to'yi marosimlari O'zbekistonning boshqa hududlaridagi nikoh to'y marosimlari bilan o'xshashliklarga ega bo'lsa-da, o'ziga xos urf-odat va rasm-rusumlari bilan ajralib turgan. Voha aholisining nikoh to'yi marosimlari to'y boshlanishidan to'y yakunigacha bo'lgan davr oralig'ida bir qator bosqichlardan iborat bo'lib, ularni uch guruhga bo'lish mumkin: nikoh to'yigacha o'tkaziladigan marosimlar, nikoh to'yi davomida o'tkaziladigan marosimlar va nikoh to'yidan keyin o'tkaziladigan marosimlar.

Surxon vohasida nikohning “bel quda”, “etak yirtish” kabi shakllari mavjud bo'lgan. “Bel quda” udumida qalin oshna-og'aynilar xotinlarining homiladorlik davrida dunyoga keladigan o'g'il va qizlarini bir-biriga atalab qo'yishgan. Dunyoga kelgan bu farzandlar ulg'aygach, bir-birlari bilan turmush qurishgan. “Etak yirtish” marosimi esa tug'ilgan o'g'il va qizni ota-onalarining kelishuvi va roziligiga asoslanib, chaqaloqlik davrida unashtirish odati bo'lgan. O'g'il va qizning

chaqaloqlik davrida bunday unashtirilishi Markaziy Osiyo xalqlari orasida ham keng tarqalgan bo‘lib, “quloq tishlash”, “beshikdagi unashtirish”, “beshik kerti” deb atalgan [6, 272].

Surxon vohasida levirat, sarorat, “qarshi quda”, “kuch kuyov”, “ich kuyov”, “voy-voy nikoh” kabi nikoh turlari mavjud bo‘lgan. Levirat va sarorat nikoh turlari oila qurishning eng qadimiy udumlaridan hisoblanadi.

1. *Voha aholisida levirat udumiga ko‘ra*, vafot etgan kishining beva qolgan xotini (vohaning Shalldiroq, Obodon, To‘la kabi qishloqlarida “jesir” deb atalgan) “chechaning bir tupi halol” degan tamoyil asosida marhumning aka yoki ukalaridan biriga turmushga berilgan. “Jesir” ega degan tushunchaga binoan, vafot etgan kishining qarindoshlari beva ayolni begona urug‘ga bermaganlar. Agar aka-ukalardan hech biri “jesir”ga uylanmasa, qarindosh-urug‘lar yig‘ilib, “yerda qolsa, jiyaniki” degan odat bo‘yicha, marhumning jiyanini majburan uylantirganlar.

2. *Sarorat odati ham Surxon vohasida keng tarqalgan bo‘lib*, bunda xotini vafot etgan er o‘lgan xotinining opasi yoki singlisiga uylangan. Levirat va sarorat nikohlari, asosan, iqtisodiy hamda oilaviy hayot taqozosi bilan bog‘liq bo‘lib, ular amaliy hayotda qo‘llanib kelingan.

3. *Surxon vohasi aholisi orasida “voy-voy nikoh” udumi ham mavjud bo‘lgan*. O‘rganilayotgan davrda qizlarni majburan turmushga berish hollari uchrab turgan. Ayrim hollarda qizlar mulla ijob qilayotganda “tan mahramlik”ka rozilik bermaganlar. Bunday vaziyatlarda qizdan rozilik so‘ralayotganda, orqa tomondan kimdir sezdirilmasdan qizning biqiniga qattiq turtib yuborgan. Shu paytda qiz “voy” deb yuborgan va shu narsa qizning roziligi sifatida qabul qilinib, nikoh ijob qilingan.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, tadqiq etilayotgan davrda, agar nikohsiz homila paydo bo‘lsa, kelin va kuyovning nikohi ijob qilingan. Bunday holatda kuyovning orqasiga eshak to‘qimi bog‘lanib, ijob o‘qilgan. Agar kuyov eshak to‘qimini qo‘ydirmasa, mulla tomonidan ijob o‘qilmagan. Bu bilan yoshlarni islomiy hamda axloqiy qonun-qoidalarga bo‘ysundirish maqsad qilingan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Surxon vohasida o‘g‘il bolalarni 15-17 yoshda, qizlarni esa 9-11-13 yoshda turmushga berganlar. Voha aholisi orasida qizlarni turmushga berish bilan bog‘liq qo‘shiqlar ham mavjud bo‘lgan.

4. *Nikoh to‘yi marosimi Surxon vohasida “ijob to‘yi”, “katta yaloq qizartirar to‘yi” kabi nomlar bilan atalgan* va bu marosim kelin-kuyov ota-onalarining jiddiy tayyorgarligi asosida o‘tkazilgan.

Nikoh to‘yidan bir kun oldin kechqurun kuyov uyida “iliq taboq” marosimi o‘tkazilgan. Ushbu marosimda qishloq aholisi kuyovnikiga chaqirilib, osh tortilgan. Keyin dasturxon o‘rtasiga ro‘mol tashlanib, marosim ishtirokchilari imkoniyatlariga

qarab pul tashlashgan. Ayollar esa ro‘mol va kiyim-kechak hadya qilgan. Ushbu kiyim-kechaklar ertasi kuni kelinning uyiga yuborilgan [7, 42-43].

XULOSA

Surxon vohasi aholisining nikoh to‘y marosimlari O‘zbekistonning boshqa hududlaridagi aholi nikoh to‘y marosimlari bilan o‘xshashlik tomonlari bo‘lsa-da, lekin o‘zining urf-odat va rasm-rusumlarining o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turgan. Voha aholisi nikoh to‘y marosimlarida to‘y boshlanishidan to‘y tarqagunicha bo‘lgan davr oralig‘ida to‘y bilan bog‘liq qator marosimlar bajarilgan bo‘lib, bu marosimlarni uch guruhga: nikoh to‘yigacha o‘tkazilgan marosimlar, nikoh to‘yi davrida o‘tkaziladigan marosimlar va nikoh to‘yidan keyin o‘tkazilgan marosimlarga bo‘lib tadqiq qilinadi. Bugungu kunda yurtimizda o‘tkazilayotgan to‘y marosimlari haddan tashqari dabdabali va ortiqcha isrofgarchiliklarga yo‘l qo‘yimoqda, bu esa oilaning moddiy tomonlama qiynab qo‘ymoqda. Bu ortiqcha sarf xarajat yangi qurilayotgan oilaning xam darz ketishiga bazi hollarda sabab bo‘lmoqda. Shunday ekan, xalqimizning bunaqangi kerak emas bo‘lgan turli urf-odatlarini kamaytirmog‘imiz lozimdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 2007. Ж. 3. – Б. 38.
2. Отахўжаев Ф. Никоҳ ва унинг ҳуқуқий тартибга солиниши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – Б. 19.
3. URL: <https://sunmag.me/svadby/ekzogamnye-i-endogamnye-braki.html>
4. Косвен О.М. Ибтидоий маданият тарихидан очерklar. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 153.
5. Тишин В.В., Серегин Н.Н. Положение женщины в древнетюркском обществе // Историческая психология и социология истории. – Тошкент, 2015. № 1. – С. 110.
6. Садри Максуди Ареал. Тюркская история и право / Перевод с турецкого языка Рафаэля Мухамметдинова. – Казань: ФЭН, 2002. – С. 272.
7. Холмонова Ф., Худойназаров О., Ахмедова Г. Никоҳ тўйлари // Мозийдан садо, 2013. № 2. – Б. 42-43.